



TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

# TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL  
ISSN 2992-9016

№1/2026

**Muassis:**  
TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi**  
**Ilmiy-uslubiy jurnal**

**Bosh muharrir:**

Sattarov Abdusamat  
Umurqulovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

**Mas'ul kotib:**

Turayev Baxtiyor Ergashevich

**Dizayner:**

Meyliqulov Shahboz  
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba**  
**nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

31.03. 2026.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnituruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

**Tahririyat manzili:**

Termiz sh., "Yulduz" MFY,  
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)  
L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)  
Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.  
Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD). dots.  
Toshqulov A.H. – i.f.d, prof.  
Absamatov A.E. – i.f.d., dots.  
Ruzmetov B. – i.f.d. prof.  
Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.  
Ro'ziyev O.A. – i.f.n., dots.  
Otamurodov Sh.N. – i.f.d., dots.  
Shodiyev A.A. – i.f.d., dots.  
Bakirov P.U. – f.f.d., prof.  
Qodirov U.D. – p.f.d., prof.  
Turopova S.K. – f.f.d., dots.  
Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.  
Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots  
Yarmatov Sh.CH. – i.f.f.d (PhD).  
Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).  
Absamatov As.E. – i.f.f.d (PhD)  
Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).  
Xoliyorov E.Ch. – f-m.f.n., dots.  
Esanov A.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.  
Xudoyberdiyev U.T. – t.f.f.d. (PhD)  
Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD), dots v.b.  
Xayrullayev I.N. – f-m.f.n., dots.  
Bozorov S.B. – f.f.f.d. (PhD)  
Sattarova Y.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.  
Eshkurbanov S.B. – t.f.f.d. (PhD), dots.  
Saloxitdinova N.M. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Madiyeva M.Y. – f.f.f.d. (PhD), dots.  
Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD), dots.  
Yormatov F. J. – t.f.n., dots.  
Xoshimxo'jayeva M. –f.f.f.d. (PhD), dots.  
Ismoilov B.T. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Salomov G'. Y. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Uralova O. P. – f.f.d (DSc), dots.  
Xolov O.Ch. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Usmonov M. Q. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Abdusamatov A.S. - p.f.f.d. (PhD). dots.  
Norkulova Sh. T. – f.f.f.d. (PhD)  
Shoturayev J. – p.f.f.d. (PhD).  
Abduraxmanov A.Y. – t.f.f.d. (PhD).

# MUNDARIJA

## **N.A. ABDURAIMOVA, M.N. KARIMOVA**

Tadbirkorlik subyektlarida moliyalashtirishni takomillashtirish asosida aholi bandligini ta'minlashning iqtisodiy tahlili.....5

## **N.A. ABDURAIMOVA, M.T. RO'ZIYEVA**

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....10

## **G.A. AXMETOVA**

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash omillari.....16

## **S.R. BOYPO'LATOV**

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda innovatsion va raqamli texnologiyalarning roli.....21

## **M.SH. CHORIYEVA**

Eksport salohiyatidan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish omillari.....26

## **N.X. DO'SMUXAMEDOVA**

Nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini samarali yuritish omillari.....32

## **B.A. ERDANAYEV**

Hududiy rivojlanishda drayver tarmoqlarning o'рни va ularni shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari .....37

## **N.N. ESHQULOVA, SH.B. ABDUNABIYEV**

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi va xizmatlar eksporti dinamikasi tahlili.....42

## **M.X. KURBOSHEVA**

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning nazariy-metodologik asoslari.....47

## **O.J. MURODOV, H.I. G'ULOMOV**

Paxta tozalash korxonalarida moliyalashtirish-innovatsiya uzilishi: O'zbekiston agroklastarlari misolida empirik tahlil.....52

## **SH.S. MUZRAPOVA, N.S. MUZRAPOVA**

Ekonometrika ta'limida interaktiv va amaliy matematika asosidagi yondashuvlarning samaradorligini baholash.....59

## **Z.M. NORALIYEVA**

Qishloq joylarni rivojlantirish va aholi turmush sifatini yaxshilashda kichik biznes samaradorligini oshirish yo'llari.....66

## **A.P. PARDAYEV**

O'zbekiston bank tizimini strategik transformatsiya jarayonining tahlili.....74

## **J.R. SAYFIYEV**

Agile transformatsiya jarayonidagi kutilayotgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari.....77

## **A.A. SHODIYEV, B.A. SHODIYEV**

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari.....82

## **B.E. TURAYEV**

Iqtisodiy o'sish omillarini kobb-duglas modeli asosida ekonometrik baholash.....89

## **Z.I. XAKIMOV**

Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni moliyalash yo'nalishlari.....93

## **N.A. XAKIMOVA**

Fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab - quvvatlashda subsidiya amaliyotini takomillashtirish.....98

## **SH.D. XAYDAROVA**

Maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari.....103

## **L.L. XAYRULLAYEVA**

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashil iqtisodiyot yondashuvi va an'anaviy iqtisodiy model.....107

## **Y.Z. XUDAYAROVA**

Asalarichilik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni lasso regression modeli asosida tahlil qilish.....112

## **R.A. XURRAMOV**

Hududlar kesimida eksport mahsulotlarining daromadlilik darajasini prody indeksi asosida statistik tahlil qilish.....116

## **G.A. YUSUPOV**

Uzoq muddatli aktivlarda adaptiv amortizatsiya usuli.....122

# MUNDARIJA

## **SH.E.BOBOMURATOVA**

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....126

## **D.MUQUMOVA**

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....134

## **D.B.IBODULLAYEVA**

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....137

## **Z.M.AMIRKULOVA**

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqealik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....140

## **M.A.MEYLIQULOVA**

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....144

## **SH.A.DONAYEVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....147

## **G.E.TURAYEVA**

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish .....150

## **M.X.XAYDAROVA**

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....153

## **F.A.XAYITOVA**

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....157

## **D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV**

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....160

## **F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA**

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....164

## **U.A.TASHBAYEVA**

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....169

## **SH.T.TOSHOVA**

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....173

## **R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....176

## **G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA**

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....180

## **D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....187

## **M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....190

## **M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA**

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....194

## **G'A.MAMARAJABOV**

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....198

## **T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV**

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....202

## **SH.T.YAKUBOVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....205

## **N.B.RAUPOVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari namunalari misolida).....208

## **M.SH.BURIYEVA**

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....213

## **Z.M.ALLAYEV**

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....218

## **Z.F.ERGASHEVA, G'Y.SALOMOV**

Ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....221

## **L.A.RAIMOV**

A comparative analysis of ai and human translation in advertising texts.....225

## **A.A.QARAQULOV**

Mengziyo Safarov qissalarida ona-tabiatning poetik manzarasi.....229

## **N.A.UMAROVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish nazariyasi va metodikasi.....234

## **M.T.MENGNAROVA**

Ingliz va O'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda madaniy birliklarning ahamiyati.....238

## **I.B.JURAEV**

The effect of authentic materials on vocabulary acquisition in english classes.....242

## **D.A.BADALOV**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, klaster metodida yondashish.....248

## **F.J. YARMATOV, T.J. YARMATOV**

Dostonchilik an'analari shakllanishining tarixiy asoslari.....252

## **M.O.BEGALIYEVA**

Pattakesar.....257

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

**Abduraimova Nigora Abdugapparovna**

E-mail: nigora\_abduraimova@tues.uz

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

**Karimova Nilufar Musayevna**

E-mail: nilufar\_karimova@gmail.com

### TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY TAHLILI

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishni takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda tadbirkorlik faolligi va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning noxiziqi xususiyati asoslanib, moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi kichik va o'rta biznesning kengayishi hamda ish o'rinlari yaratilishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani ko'rsatib berilgan. Xalqaro tajriba asosida AQSH, Germaniya, Singapur, Isroil va Janubiy Koreya mamlakatlarida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning institutsional va moliyaviy modellari qiyosiy tahlil qilingan.

Shuningdek, O'zbekistonda venchur moliyalashtirish, startup ekotizimining rivojlanishi, FinTech, HealthTech va EdTech yo'nalishlariga investitsiyalar dinamikasi hamda islomiy moliya instrumentlarini joriy etishning bandlikka ta'siri baholangan. Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlari misolida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlarining mehnat bozoriga ta'siri empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida tadbirkorlikni moliyalashtirishni takomillashtirish orqali barqaror bandlikni ta'minlashga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Tadbirkorlikni moliyalashtirish, Aholi bandligi, Kichik va o'rta biznes, Venchur kapitali, Startup ekotizimi, Ish o'rinlari yaratish, Islomiy moliya, FinTech, HealthTech, EdTech, Mehnat bozori, O'zbekiston iqtisodiyoti.

### ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ СУБЪЕКТОВ

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье проведён комплексный анализ экономических механизмов обеспечения занятости населения на основе совершенствования финансирования предпринимательских субъектов. В исследовании обоснована нелинейная взаимосвязь между предпринимательской активностью и рынком труда, показано, что ограниченность финансовых ресурсов негативно влияет на расширение малого и среднего бизнеса и создание рабочих мест. На основе международного опыта проведён сравнительный анализ институциональных и финансовых моделей поддержки предпринимательства в США, Германии, Сингапуре, Израиле и Южной Корее.

Кроме того, в статье оценены развитие венчурного финансирования, стартап-экосистемы, динамика инвестиций в направления FinTech, HealthTech и EdTech в Узбекистане, а также влияние внедрения инструментов исламского финансирования на занятость. На примере Сурхандарьинской и Сырдарьинской областей эмпирически проанализировано влияние программ поддержки предпринимательства на рынок труда. По результатам исследования разработаны практические предложения и рекомендации, направленные на обеспечение устойчивой занятости на основе совершенствования финансирования предпринимательства.

**Ключевые слова:** Финансирование предпринимательства; Занятость населения; Малый и средний бизнес; Венчурный капитал; Стартап-экосистема; создание рабочих мест; Исламское финансирование; FinTech; HealthTech; EdTech; Рынок труда; Экономика Узбекистана.



## ECONOMIC ANALYSIS OF ENSURING EMPLOYMENT THROUGH IMPROVING FINANCING IN BUSINESS ENTITIES

### ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the economic mechanisms for ensuring employment through improving the financing of business entities. The study substantiates the nonlinear relationship between entrepreneurial activity and the labor market, showing that limited access to financing negatively affects the expansion of small and medium-sized businesses and job creation. Based on international experience, a comparative analysis of institutional and financial models for supporting entrepreneurship in the United States, Germany, Singapore, Israel, and South Korea is conducted. In addition, the paper evaluates the development of venture financing, the startup ecosystem, the dynamics of investments in FinTech, HealthTech, and EdTech sectors in Uzbekistan, as well as the impact of introducing Islamic finance instruments on employment. Using the examples of Surkhondaryo and Syrdaryo regions, the impact of entrepreneurship support programs on the labor market is empirically analyzed. Based on the research findings, practical recommendations and proposals aimed at ensuring sustainable employment through improving the financing of entrepreneurship have been developed.

**Keywords:** Entrepreneurship financing; Employment; Small and medium-sized enterprises; Venture capital; Startup ecosystem; Job creation; Islamic finance; FinTech; HealthTech; EdTech; Labor market; Economy of Uzbekistan.

### KIRISH

Jahon iqtisodiyotidagi beqarorlik, global savdo ziddiyatlarining kuchayishi hamda geosiyosiy noaniqliklar sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bunday sharoitda aholi bandligini saqlash va yangi ish o'rinlari yaratishda tadbirkorlik faolligi muhim ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadbirkorlik nafaqat o'z-o'zini band qilish shakli, balki innovatsiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va mehnat bozorida barqarorlikni ta'minlashning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi.

Ammo tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishi ko'p jihatdan moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari bilan bog'liq. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, kichik va o'rta biznes hamda startaplar uchun moliyalashtirishning cheklanganligi ularning kengayishi, bozorda barqaror faoliyat yuritishi va ish o'rinlari yaratish salohiyatini sezilarli darajada cheklab qo'ymoqda. Ayniqsa, ventur kapitali, innovatsion moliya instrumentlari va alternativ moliyalashtirish shakllarining yetarli darajada rivojlanmagani bandlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish tizimini isloh qilishga qaratilgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan ventur moliyalashtirishni rivojlantirish, startap ekotizimini shakllantirish, raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, islomiy moliya instrumentlarini

joriy etish orqali aholining iqtisodiy faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonlar tadbirkorlik va bandlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilishni taqozo etmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish va aholi bandligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlar, rasmiy statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tashkilotlar (OECD, Jahon banki) hisobotlari tashkil etdi. Tahlil jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy va tizimli yondashuv, dinamik hamda tarkibiy-statistik tahlil usullari qo'llanildi. Tadbirkorlikni moliyalashtirishning bandlikka ta'sirini baholashda bandlik multiplikatori konsepsiyasi, ishlab chiqarish funksiyasi elementlari hamda empirik taqqoslash usullaridan foydalanildi. Hududiy tahlil Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlari misolida olib borildi.

**Tahlil va natijalar.** 2020-yillarning birinchi yarmi global iqtisodiy arxitektura uchun savdo ziddiyatlarining kuchayishi va xalqaro siyosatdagi noaniqliklar ortishi bilan bog'liq misli ko'rilmagan chaqiriqlar davri bo'ldi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega mamlakatlar (EMDEs) uchun bu omillar ish o'rinlarini yaratish va qashshoqlikka qarshi kurashish imkoniyatlarini sezilarli darajada chekladi. Aksariyat Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot

tashkiloti (OECD) mamlakatlarida bandlik va mahsuldorlik o'sishi sustlashgan sharoitda, startaplar va yosh firmalarning yangi ish o'rinlari yaratuvchisi hamda innovatsiya tashuvchisi sifatidagi o'rni siyosiy munozaralarning markaziga chiqmoqda. Tadbirkorlik shunchaki o'z-o'zini band qilish shakli emas, balki innovatsiyalar, iqtisodiy farovonlik va ijtimoiy barqarorlikning fundamental katalizatori hisoblanadi.

Tadbirkorlikni moliyalashtirish va aholi bandligi o'rtasidagi bog'liqlik chiziqli emas va u ko'plab omillarga, jumladan, institutsional sifat, inson kapitali darajasi va mehnat bozorining moslashuvchanligiga bog'liq. Iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik faolligi ishsizlikni kamaytirishga yordam beradi, xotin-qizlar va yoshlar uchun ish o'rinlarini taklif etadi, shuningdek, mahalliy darajada ish o'rinlari yaratish orqali qishloqlardan shaharlarga migratsiyani jilovlaydi. Biroq, moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi asosiy to'siq bo'lib qolmoqda: rivojlanayotgan mamlakatlardagi kichik va o'rta biznes (KOB) sub'ektlari ko'pincha mahalliy moliyaviy tizimlarning nomukammalligi sababli kengayish uchun kapital jalb qila olmaydilar.

Tadbirkorlik sektorida ish o'rinlari yaratilishi nazariy jihatdan ikki bosqich bilan belgilanadi: bozorga kirish (entry) va kirishdan keyingi (post-entry) o'sish va yashab qolish bosqichi. AQSH kabi rivojlangan davlatlarda yangi firmalarning kirish tezligi umumiy bandlik o'sishi bilan bog'liq ekanligi tasdiqlangan. Shunga qaramay, barcha yangi firmalar va asosiy ish o'rinlarini yaratuvchi yuqori mahsuldor firmalar o'rtasidagi farqni tushunish muhimdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yangi firmalarning uchdan bir qismi ikki yildan ortiq faoliyat ko'rsata olmaydi, bu esa bozorning dinamik xususiyatini ko'rsatadi.

Investitsiyalarning bandlikka ta'sirini miqdoriy baholash uchun bandlik multiplikatori konsepsiyasi qo'llaniladi. Agar startapga kiritilgan investitsiyani I omili, bandlar sonining o'zgarishini esa  $\Delta L$  deb olsak, moliyaviy qo'llab-quvvatlash samaradorligini quyidagi ishlab chiqarish funksiyasi orqali ifodalash mumkin:

$$Q = A \cdot K^{\alpha} \cdot L^{\beta} \quad (1)$$

bu yerda, Q – mahsulot hajmi, A – texnologik koeffitsiyent, K – kapital, L – mehnat.

Moliyalashtirish imkoniyatlarining yaxshilanishi K ni oshiradi, bu esa ma'lum sharoitlarda L ning

o'sishiga olib keladi. Venchur kapitali sohasida bu bog'liqlik yanada yaqqol namoyon bo'ladi: ma'lumotlarga ko'ra, har 1 million dollar venchur investitsiyasi taxminan 41 ta ish o'rni yaratadi va kamida bitta yangi korxonaga paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning turli modellarini ko'rsatadi. Bu boradagi muvaffaqiyatlar moliya siyosati, soliq imtiyozlari, tadbirkorlik ta'limi va innovatsion ekotizim komponentlarining integratsiyalashuvi bilan bog'liq.

Kremniy vodiysi kabi markazlarga asoslangan Amerika ekotizimi yetakchi universitetlar (Stenford, MIT, Harvard) bilan uzviy bog'liqlikka tayanadi. Iste'dodlar va yangi texnologiyalarni erta qabul qilish madaniyati AQSHni innovatsiyalar markaziga aylantiradi. Muhim xususiyatlardan biri – immigrantlar tadbirkorligi. AQSHdagi immigrantlar mahalliy aholiga nisbatan kichik biznes yaratishga ko'proq moyil bo'lib, jamoalarni rivojlantirish drayveri bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, AQSHdagi besh yillik o'rtacha firma 17,43 kishini ish bilan ta'minlaydi. Immigratsiya oqimining kamayishi yangi startaplar sonining qisqarishi hisobiga o'n yil ichida 12 milliondan ortiq ish o'rni yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

2024-yilda O'zbekiston delegatsiyasi Germaniyaning kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash tajribasini o'rgandi. Asosiy e'tibor resurslarga kirishni soddalashtiruvchi va innovatsion yechimlarni joriy etuvchi davlat dasturlariga qaratildi. Germaniya modeli startap-inkubatorlar, texnologik parklar va TUMO kabi innovatsion o'quv markazlariga tayanadi. Davlat subsidiyalari va imtiyozli kreditlash inson kapitalini rivojlantirish bilan uzviy bog'langan bo'lib, bu KOB sub'ektlariga iqtisodiy tebranishlar sharoitida barqarorlikni saqlash imkonini beradi.

Singapur, Isroil va Janubiy Koreya davlatlari venchur ekotizimlarini "noldan" yaratishda namuna hisoblanadi.

Isroil "Yozma" dasturini amalga oshirib, davlat kafolatlari orqali xususiy investorlarni jalb qildi va innovatsiya siyosatini transformatsiya qildi.

Singapur davlat va xususiy kapital xatarlarni baham ko'radigan qo'shma investitsiya (co-investment) mexanizmlaridan faol foydalanadi.

Janubiy Koreya yuqori texnologiyali sohalarga resurslarni tizimli taqsimlash uchun "fondlar fondi" (fund-of-funds) modeliga tayanadi.

1-jadval.  
Mamlakatlar kesimida moliyalashtirish strategiyalari va siyosatning asosiy yo'nalishlari qiyosiy tahlili<sup>1</sup>

Mamlakat	Asosiy moliyalashtirish strategiyasi	Siyosatning asosiy yo'nalishi
AQSH	Xususiy venchur kapitali va "farishtalar"	Universitetlar bilan integratsiya, global iste'dodlarni jalb qilish
Singapur	To'g'ridan-to'g'ri davlat hamkorlikdagi investitsiyasi	Xorijiy startaplar va kapitalni jalb qilish
Germaniya	Davlat subsidiyalari va bank kreditlari	An'anaviy KOBni raqamlashtirish, kasbiy ta'lim
Isroil	Xatarlarni kafolatlash dasturlari (Yozma)	Texnologik yetakchilik va innovatsiyalar eksporti

O'zbekiston tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini modernizatsiya qilishning chuqur bosqichiga kirdi. Davlat siyosati fuqarolarning daromadlari va aktivlaridan erkin foydalanishi uchun sharoit yaratishga yo'naltirilgan. Iqtisodiyotning ochiqligi va innovatsion yechimlarni jalb qilish barqaror o'sishning asosiy vektori bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda uzoq vaqt shakllanish bosqichida bo'lgan venchur moliyalashtirish 2024-yilda portlovchi dinamika ko'rsatdi. Startaplarga kiritilgan venchur investitsiyalar hajmi 17,5 million AQSH dollariga yetdi, bu o'tgan yilga nisbatan qariyb uch barobar ko'pdir. Bu o'sish davlat va xususiy fondlarning faollashuvi hamda biznes-farishtalar klublarining paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

RISE Research va KPMG ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda 38 ta yirik bitim amalga oshirildi. Venchur bitimlarining o'rtacha hajmi to'rt barobar oshganligi investorlarning mahalliy startaplarga bo'lgan ishonchi ortayotganidan dalolat beradi. Tarmoqlar kesimida quyidagilar yetakchilik qilmoqda:

1. AI (Sun'iy intellekt) – bitimlar soni bo'yicha birinchi o'rinda.
2. FinTech (Moliyaviy texnologiyalar) – jalb qilingan mablag' hajmi bo'yicha yetakchi.
3. HealthTech (Sog'liqni saqlash texnologiyalari) va EdTech (Ta'lim texnologiyalari) – yirik strategik investitsiyalarni jalb qilgan holda barqaror o'sish ko'rsatmoqda.

Venchur bozorida davlat ishtiroki hali ham yuqori. 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, investitsiyalarning 70 foizi (\$2,6 mln) davlat tuzilmalari tomonidan ta'minlangan bo'lsa, xususiy sektor 30 foizni tashkil etgan. Aloqa Ventures, UzVC, Sturgeon Capital va Semurg Ventures kabi fondlar faoliyati raqobat muhitini shakllantirmoqda.

IT Park Uzbekistan'ning tashkil etilishi burilish nuqtasi bo'ldi. U rezidentlarga soliq

imtiyozlari, kovorking va mentorlik yordamini taqdim etadi. Innovatsion rivojlanish agentligi yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash orqali texnologik sektorlarda ish o'rinlari yaratishga hissa qo'shmoqda. 2024-yilga kelib O'zbekistonda faol startaplar soni 400 tadan oshdi.

2024-yilning eng muhim tartibga soluvchi o'zgarishlaridan biri islomiy moliya asoslarining joriy etilishi bo'ldi. Bu yo'nalish diniy e'tiqod tufayli an'anaviy bank xizmatlaridan foydalanmayotgan aholi resurslarini iqtisodiy oborotga jalb qilish vositasi sifatida ko'rilmogda. 2024-yil may oyida O'zbekiston Markaziy banki islomiy banking to'g'risidagi qonun loyihasi tayyorligini e'lon qildi. 2024-yil 26-iyulda "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 3536) tasdiqlandi. Ushbu hujjat nobank kredit tashkilotlariga quyidagi vositalarni joriy etish imkonini beradi:

Murabaha – ustama haqi oldindan belgilangan savdo moliyalashtirishi.

Ijara – lizingning islomiy analogi bo'lib, tadbirkorlarga ortiqcha qarz yuki bo'lmagan holda asosiy vositalarni yangilash imkonini beradi.

Musharaka va Mudaraba – foyda va xatarlar tomonlar o'rtasida taqsimlanadigan sheriklik shakllari.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlarning 61 foizi va aholining 75 foizi O'zbekistonda islomiy banking xizmatlari joriy etilsa, ulardan foydalanishga tayyor. Bu ayniqsa an'anaviy turmush tarziga ega hududlarda mikro-tadbirkorlikni faollashtirish va yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi.

Moliyaviy yordamning mehnat bozoriga ta'sirini tushunish uchun Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlari misolida bandlik dinamikasini ko'rib chiqish lozim.

2-jadval.

Band aholi sonining dinamikasi (ming kishi)<sup>2</sup>

Hudud	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024 (prognoz)
Surxondaryo viloyati	588,6	720,6	802,6	814,9	770,3	785,5	792,3
Sirdaryo viloyati	248,0	277,5	278,4	267,4	247,5	248,7	258,3

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2021-yilgacha bo'lgan o'sishdan so'ng ma'lum bir pasayish kuzatilgan, bu tarkibiy islohotlar va samaradorlikni oshirishga qaratilgan choralar

bilan bog'liq. 2023-2024-yillarda bandlikning qayta tiklanish tendensiyasi imtiyozli kreditlash dasturlari va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari faollashgan davrga to'g'ri keladi. 2024-yil yakuniga ko'ra O'zbekistonda faol kichik korxonalar soni 358,1 mingtaga yetdi. Sirdaryo viloyati har 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik korxonalar soni bo'yicha (13,7 birlik) yetakchi hududlardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda tadbirkorlik loyihalari o'z hissasini to'liq namoyon etishi uchun bir qator tashqi va ichki to'siqlarni yengib o'tishi kerak.

### **Tashqi muammolar:**

venchur faoliyati va investorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha mukammal normativ bazaning yo'qligi;

investorlar o'z ulushlarini sotishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar;

tijorat kreditlari bo'yicha yillik 24% atrofida stavkalar tadbirkorlik sub'ektlari uchun jiddiy yuk hisoblanadi;

innovatsion korxonalar garov ta'minoti yo'qligi sababli an'anaviy bank kreditlaridan foydalana olmaydilar.

### **Ichki muammolar:**

tadbirkorlar va investorlar zamonaviy moliya instrumentlari haqida yetarli bilimga ega emas; ilmiy g'oyalar va tadqiqotlarni bozor mahsulotiga aylantirishdagi uzilishlar;

ma'muriy xatolar va resurslarni noto'g'ri rejalashtirish istiqbolli kompaniyalarning inqiroziga olib kelmoqda.

**Xulosa.** Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda tadbirkorlikni moliyalashtirishni takomillashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy vazifadir. 2024-2025-yillarda quyidagi yo'nalishlar ustuvor bo'lishi lozim:

1. STEP (Skills Toward Employment and Productivity) loyihasi asosida yoshlarning raqamli va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish.

2. Islomiy moliya darchalarini kengaytirish, kraudfanding va biznes-farishtalar faoliyatini rag'batlantirish.

3. Tadbirkorlik kodeksini qabul qilish va venchur investitsiyalari uchun soliq imtiyozlarini joriy etish.

4. Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida xotin-qizlar va yoshlarga ajratiladigan imtiyozli kreditlar muddatini va hajmini oshirish (300 mln so'mgacha).

Xulosa qilib aytganda, davlat tomonidan qo'llab-

quvvatlash, xususiy tashabbus va islomiy moliya kabi innovatsion moliya instrumentlarining sinergiyasi O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning asosiy drayveri bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Measuring job creation by start-ups and young firms. – OECD.

2. Olafsen E., Cook P. Growth Entrepreneurship in Developing Countries: A Preliminary Literature Review. – World Bank. 2016

3. Ermawati Y. Entrepreneurial Finance Strategies for Startup Success. Advances in Economics & Financial Studies. 2. 10.60079/aefs.v2i2.283. 2024

4. Saydullaeva Kh. Venture Capital as a New Way of Funding Technology Startups in Uzbekistan. EJASET. Vol. 2, No. 2. 2024

5. Hoshimov U. O'zbekistonda venchur kapitali ekotizimini rivojlantirish: manbalari, muammo va istiqboli. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 3(10), 2025, 100-111.

6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Islomiy banking to'g'risidagi qonun loyihasi tayyorligi haqida axborot. – 2024.

7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risida nizom (ro'yxat raqami 3536, 26.07.2024).

8. Azoulay P., Jones B., Kim J.D., Miranda J.. Immigrant Entrepreneurship and Job Creation in the United States: A Historical Analysis and Future Projection Model. – University of Tennessee. 2020

9. Qinyuan L. Methods and Trends in Financing Entrepreneurship. Open Journal of Business and Management. 11. 2023, 3255-3268.

10. Lysias H. Report on Support to SMEs in Developing Countries Through Financial Intermediaries. – European Investment Bank. 2011

11. Framing the Global Landscape of Entrepreneurship Education and Training Programs. – World Bank Open Knowledge Repository. 2013.

12. Folorunsho A. An Overview of Entrepreneurial Development in Developing Countries: A Comparative Analysis. 2018.